FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 13 - avgust 251-11-163-Q/22 Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi Yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish haqini to‘lash tariflarini belgilash bo’yicha PQ–2724-sonli qarori to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalari, “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12, 16-moddalari, “Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2724-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida”gi 482-sonli, 2012 yil 17 sentyabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 273-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashishning yo‘l qo‘yiladigan tariflar darajasi iqtisodiy asoslangan tashish xarajatlaridan va yo‘lovchilar tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Farg‘ona viloyat hokimining 2022 yil 10 fevraldagi 84-11-0-Q/22-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyatidagi shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish quyidagi tariflarda belgilanganligi, jumladan:

a) xizmatlarining cheklangan tarifi bir yo‘lovchiga yo‘l haqi yo‘nalishli taksi

(mikroavtobus)lar uchun bir o‘rindiq uchun 2500 (ikki ming besh yuz) so‘m;

b) avtobuslarda bir nafar yo‘lovchi uchun yo‘l chiptasi 1500 (bir ming besh yuz) so‘m;

v) yo‘nalishli taksi va avtobuslarda hajmi 60 sm x 40 sm x 20 santimetrdan 100 sm x 50 sm x 30 santimetrgacha bo‘lgan va uzunligi 150 santimetrdan 200 santimetrgacha bo‘lgan buyumlarni, shuningdek, o‘lchamidan qat’i nazar, og‘irligi 20 kilogrammdan ortiq bo‘lgan bagajni olib yurish qiymati yo‘lovchining yo‘l haqi qiymati kabi tartibda.

3. Farg‘ona viloyati shaharlarida, shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish xizmatlarining cheklangan tarifi qo‘yidagicha belgilanganligi, jumladan:

a) avtobuslarda bir nafar yo‘lovchi (1) km uchun 170 (bir yuz yetmish) so‘m;

b) mikroavtobuslarda bir nafar yo‘lovchi (1) km uchun 250 (ikki yuz ellik) so‘m;

4. Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 17 sentyabrdagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchilar aylanmasini
va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomga asosan pensionerlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar, o‘quvchilar va talabalar uchun 50 foizlik chegirma berilganligi inobatga olinsin.

5.“Yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan yo‘lovchilar transportidan (taksidan tashqari) imtiyozli (bepul) foydalanuvchilar ro‘yxati ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonunga asosan yo‘lovchi:

yo‘nalishlaridagi avtobuslarda yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘zi bilan bepul olib yurish;

yo‘nalishlarida yigirma kilogrammdan oshmaydigan og‘irlikdagi bagajning bir o‘rnini o‘zi bilan bepul olib yurish va boshqa huquqlarga ega ekanligi inobatga olinsin.

7. Tuman hokimi o‘rinbosari O‘.Teshajonovga, Tuman Moliya bo‘limi (A.Yusupov), yo‘lovchilar transportidan (taksidan tashqari) imtiyozli (bepul) yurish huquqini beradigan foydalanuvchilar uchun shahar yo‘lovchilar transporti

tashuvchilarining yo‘l qo‘yiladigan doiradagi tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar tashish xizmatlari ko‘rsatish munosabati bilan ko‘rgan zarari Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 17 sentyabrdagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida cheklangan tariflar bo‘yicha aholiga xizmatlar ko‘rsatish munosabati bilan shaharda yo‘lovchilarni muntazam tashish bilan band bo‘lgan tashuvchilar ko‘radigan zararlarni moliyalashtirish va qoplash tartibi to‘g‘risidagi Nizom asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 2022 yil uchun tasdiqlangan parametrlari doirasida va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Mazkur qaror “Vodil yog‘dusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Ushbu qaror imzolanib kuchga kirgandan so'ng tuman hokimining 2022 yil 24 may kunidagi 156-11-163-Q/22-sonli qarori o'z kuchini yoqotgan deb xisoblansin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O‘.Teshajonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Muminov**

Farg‘ona tuman hokimining
2022 yil 13 avgustdagi
251-11-163-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Yo‘lovchi tashish transportidan imtiyozli (bepul) foydalanuvchilar

RO‘YXATI

1. 1941 – 1945 yillardagi urush qatnashchilari jumlasidan bo‘lmish harbiy xizmatchilar.

2. 1941 – 1945 yillardagi urush nogironlari va urushning I guruh nogironiga hamrohlik qiluvchi shaxs.

3. 1941 – 1945 yillardagi urush davrida front ortida fidokorona mehnat va benuqson harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar.

4. Afg‘oniston Respublikasida va boshqa mamlakatlarning hududidagi jangovar harakatlarda qatnashgan sobiq baynalminalchi jangchilar, jumlasidan bo‘lmish fuqarolar.

5. Haqiqiy muddatli harbiy xizmatchilar va shartnoma (kontrakt) bo‘yicha oddiy harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar.

6. Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshdan kechirgan shaxslar.

7. Ko‘zi ojiz nogironlar va ko‘zi ojiz nogironga hamrohlik qiluvchi shaxslar.